

## B.FR

### Moliyaviy hisob va hisobot asoslari

2026 yilgi imtihon namunasi



## B.FR

### Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари

2026 йилги имтиҳон намунаси



# B.FR

## Moliyaviy hisob va hisobot asoslari

2026 yilgi imtihon namunasi



## Mundarija

|                                                                                   |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------|----|
| A qismi. SAVOLLAR .....                                                           | 2  |
| B qismi. SENARIYLAR .....                                                         | 12 |
| 1-senariy .....                                                                   | 12 |
| 2-senariy .....                                                                   | 14 |
| 1-senariy echimi.....                                                             | 17 |
| 2-senariyga javob.....                                                            | 21 |
| «Moliyaviy hisob va hisobot asoslari» imtixonining tuzilmasiga doir izohlar ..... | 22 |

# B.FR Moliyaviy hisob va hisobot asoslari

## Imtihan namunasi

### A qismi. SAVOLLAR

#### 1-savol

Kompaniya o'z aktivlari va majburiyatlarini yaqin kelajakda faoliyatini ish faolligini ahamiyatli darajada pasaytirmagan holda amalga oshirishi taxminidan kelib chiqib hisobga oladi. Ushbu tamoyil qanday nomlanadi?

- A. Ehtiyotkorlik tamoyili.
- B. Muvofiqlik tamoyili.
- C. Hisoblash tamoyili.
- D. **Faoliyatning uzluksizligi tamoyili.**

---

#### 2-savol

20X6 yil 1 avgustda kompaniya nominal qiymati 144 000 sh.b. bo'lgan 11 foizli vekselni 8 oy muddatga 148 000 sh.b. narxda chiqardi. 20X6 yildagi foiz xarajatlari summasi qanchaga teng?

**Sonli javob: 4 100 sh.b. (Hisob-kitob:  $144\,000 * 11\% * 5/12 - (148\,000 - 144\,000) * 5/8$ )**

---

#### 3-savol

Korxonaning 20X6 yildagi sof foydasi 120 000 sh.b.ni tashkil etdi. Amortizatsiya xarajatlari 55 000 sh.b.ni tashkil etdi. 20X6 yil davomida asosiy vositalar 80 000 sh.b.ga sotildi (boshlang'ich qiymati – 130 000 sh.b., jamg'arilgan amortizatsiya – 65 000 sh.b.). 20X6 yilda olinadigan hisobvaraqlar summasi 25 000 sh.b.ga kamaydi, taqsimlanmagan foyda summasi esa 60 000 sh.b.ga oshdi. Operatsion faoliyatdan olingan pul mablag'larining sof oqimi nimaga teng?

**Sonli javob: 185 000 sh.b. (Hisob-kitob:  $120\,000 + 55\,000 - (80\,000 - 130\,000 + 65\,000) + 25\,000$ )**

#### 4-savol

20X6 yilda kompaniya boshqa kompaniyaning obligatsiyalarini 50 000 sh.b.ga sotib oldi, 78 000 sh.b.ga o'z aksiyalarini chiqardi, 35 000 sh.b. summada dividendlar to'ladi va 21 000 sh.b. summada foyda solig'i bo'yicha joriy qarzni so'ndirdi. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan pul mablag'larining sof oqimi nimaga teng?

**Sonli javob: 43 000 sh.b. (Hisob-kitob: + 78 000 – 35 000 = 43 000)**

---

#### 5-savol

Kompaniya 400 000 sh.b.ga er uchastkasini va undagi binoni sotib oldi. Er uchastkasining bozor qiymati 120 000 sh.b.ni, binoning bozor qiymati esa 360 000 sh.b.ni tashkil etadi. Kompaniya er uchastkasini qanday qiymat bo'yicha hisobga qabul qilishi kerak?

**Sonli javob: 100 000 sh.b. (Hisob-kitob:  $120\,000 / (120\,000 + 360\,000) * 400\,000 = 100\,000$ )**

---

#### 6-savol

Quyidagi operatsiyalardan qaysi biri ham aktivlar, ham majburiyatlar summasining oshishiga olib keladi?

- A. Oddiy aksiyalarni chiqarish.
  - B. Qarzdordan pul mablag'larini olish.
  - C. Xizmat uchun oldindan to'lov olish.**
  - D. Boshqa kompaniyaning obligatsiyalarini sotib olish.
- 

#### 7-savol

Korxonaning o'z muassislariga dividend sifatida to'lashi kerak bo'lgan pul mablag'lari summasini moliyaviy hisobotlarning qaysi biridan topish mumkin?

- A. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot.**
  - B. Jami daromad to'g'risidagi hisobot.
  - C. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot.
  - D. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot.
-

## 8-savol

Katta ehtimol bilan debitorlik qarzining aylanuvchanlik davri qisqarishiga olib keladigan vaziyat tavsifini tanlang:

- A. Savdo kreditini berishda kamroq qat'iy bo'lgan nazorat tartib-taomillariga o'tish.
- B. Kreditga xarid qilishda xaridorlarga taklif etiladigan tezlashtirilgan to'lov uchun chegirma foizini oshirish.
- C. **Savdo kreditini berishda qat'iyroq nazorat tartib-taomillariga o'tish.**
- D. Hisobot davri davomida kreditga sotish hajmining kamayishi.

---

## 9-savol

«Alfa» kompaniyasi boshqa bir kompaniyaning 5 %lik aksiyalar paketiga egalik qiladi. Mazkur kompaniya 20X6 yilda 80 000 sh.b. miqdorida foyda olganini e'lon qildi. Ushbu summaning 75 %ini dividend sifatida taqsimlashga qaror qilindi. Qanday summa 20X6 yilda «Alfa» kompaniyasining daromadi sifatida tan olinishi kerak?

**Sonli javob: 3 000 sh.b. (Hisob-kitob:  $80\,000 * 75\% * 5\% = 3\,000$ )**

---

## 10-savol

Quyida keltirilgan hisobvaraqlardan qaysi biri kontr-passiv hisobvaraqlar hisoblanadi?

- A. Shubhali qarzlarni bo'yicha rezerv.
- B. Kafolatli xizmat ko'rsatish bo'yicha rezerv.
- C. **Chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha chegirmalar.**
- D. Emissiya daromadi.

---

## 11-savol

Quyida keltirilgan moliyaviy hisobot foydalanuvchilaridan qaysi biri korxonada moliyaviy manfaatga ega **BO'LMAGAN** foydalanuvchilar jumlasiga kiradi?

- A. **Davlat soliq xizmati.**
- B. Korxona kreditori.
- C. Potentsial muassis.
- D. Korxona muassisi.

---

## 12-savol

Quyida ko'rsatilgan moddalardan qaysi biri joriy aktiv sifatida tasniflanadi?

- A. Gudvil.
  - B. Kelgusi davrlar daromadlari.
  - C. Kechiktirilgan soliq aktivi.
  - D. **Kelgusi davrlar xarajatlari.**
- 

## 13-savol

Kompaniya yagona tovarni 15 % foyda normasi bilan realizatsiya qiladi. Tovarining tannarxi bir birlik uchun 136 000 sh.b.ni tashkil etadi. Tovarining bir birligi qanday narxda sotiladi?

**Sonli javob: 160 000 sh.b. (Hisob-kitob:  $136\,000 / (1 - 0,15) = 160\,000$ )**

---

## 14-savol

Kompaniya 40 000 sh.b.ni yillik 8% stavka bo'yicha, har chorakda oddiy foizlar hisoblanadigan 3 yillik depozitga qo'yishni rejalashtirmoqda. Omonat muddati oxirida kompaniyaning hisob-kitob hisobvarag'ida qancha summa bo'ladi?

**Sonli javob: 49 600 sh.b. (Hisob-kitob:  $40\,000 + 40\,000 * 8\% * 3$ )**

---

## 15-savol

20X6 yil yanvar oyi boshida kompaniya omborida har birining tannarxi 12 sh.b. bo'lgan 150 birlik tovar saqlanayotgan edi. 8 yanvar kuni kompaniya 7 290 sh.b.ga 540 birlik tovar xarid qildi, 15 yanvarda esa o'z xaridoriga 600 birlik tovarni jo'natdi. Yanvar oyida ushbu tovar bilan bog'liq boshqa operatsiyalar bo'lmagan. Yanvar oyi oxirida kompaniya omborida umumiy qiymati 1 140 sh.b. bo'lgan 90 birlik tovar saqlangan. Ushbu kompaniyada zaxiralarni hisobga olishning qaysi usuli qo'llaniladi?

- A. FIFO usuli.
- B. O'rtacha tortilgan qiymat usuli.
- C. **Maxsus identifikatsiya usuli.**
- D. LIFO usuli.

**Testga sharh: boshqa usullar davr oxiridagi tannarxning boshqa bahosini beradi.**

---

## 16-savol

MHXSga muvofiq tayyorlangan quyidagi hisobotlarning qaysi birida foydalanuvchi kompaniyaning asosiy vositalari davr mobaynida qayta baholanishi oqibatlarini ko'ra **OLMASLIGINI** ko'rsating?

- A. Foyda va zarar hamda boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotda.
- B. Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotda.**
- C. Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotda.
- D. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda.

---

## 17-savol

Hisobotlar o'z mazmunini zaruratdan ortiqcha murakkablashtirmagan holda taqdim etilishi kerak. Yuqoridagi ibora sifat tavsiflaridan qaysi birini ifodalaydi?

- A. Ishonchlilik.
- B. Neytrallik.
- C. To'liqlik.
- D. Tushunarlilik.**

---

## 18-savol

Quyida keltirilgan hisobvaraqlardan qaysi biri xususiy kapitalni hisobga olish hisobvarag'i **hisoblanmaydi**?

- A. Oddiy aktsiyalar.
- B. Shubhali qarzlarni bo'yicha rezerv.**
- C. Rezerv kapitali.
- D. Emissiya daromadi.

---

## 19-savol

Quyida keltirilganlardan qaysi biri shartli aktivlarni hisobotda aks ettirishga nisbatan to'g'ri hisoblanadi?

- A. Shartli aktivlar hech qanday holatda na moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda, na hisobotga ilova qilinadigan izohlarda aks ettirilmaydi.
- B. Shartli aktivlar moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aks ettirilmaydi, biroq kelgusida naf olish ehtimoli yuqori bo'lsa, izohlarda ochib berishga yo'l qo'yiladi.**
- C. Agar kelgusida naf olish ehtimoli yuqori bo'lsa, shartli aktivlar moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aks ettirilishi mumkin.

- D. Shartli aktivlar moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aks ettirilmaydi, biroq hisobotga ilova qilinadigan izohlarda aks ettirilishi kerak.
- 

## 20-savol

Buxgalter o'zi ishlayotgan kompaniya to'g'risidagi ichki ma'lumotlardan fond bozorida uning aktsiyalari bilan savdo qilishdan naf ko'rish uchun foydalandi. U qaysi axloqiy tamoyilni buzdi?

- A. Kasbiy layoqatlilik.
  - B. Neytrallik.
  - C. Maxfiylik.**
  - D. Kasbiy xulq.
- 

## 21-savol

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot bo'limlaridan qaysi birida nomoddiy aktivlar bo'yicha jamg'arilgan amortizatsiya ko'rsatilishi kerak?

- A. Joriy aktivlar.
  - B. Xususiy kapital.
  - C. Kontr-aktivlar.
  - D. Uzoq muddatli aktivlar.**
- 

## 22-savol

Shubhali qarzar bo'yicha baholangan rezerv odatda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot bo'limlarining qaysi birida taqdim etiladi?

- A. Uzoq muddatli aktivlar.
  - B. Joriy aktivlar.**
  - C. Uzoq muddatli majburiyatlar.
  - D. Joriy majburiyatlar.
-

## 23-savol

Sizga yakka tartibdagi tadbirkorning mart oyidagi biznes operatsiyalariga nisbatan quyidagi ma'lumotlar taqdim etilgan:

- 1 mart holatiga ko'ra debitorlik qarzi – 10 mln sh.b.
- 31 mart holatiga ko'ra debitorlik qarzi – 14 mln sh.b.
- 1 mart holatiga ko'ra bankdagi pul mablag'lari – 5 mln sh.b.
- 31 mart holatiga ko'ra bankdagi pul mablag'lari – 7 mln sh.b.
- Do'kon uchun u tomondan sotib olinadigan tovarlar uchun hisob-kitob hisobvarag'idan qilingan oldindan to'lov – 12 mln sh.b.
- Hisob-kitob hisobvarag'idan xodimlarga to'langan ish haqi – 9 mln sh.b.

Shuningdek, sizga ma'lumki, mart oyida tadbirkorning hisob-kitob hisobvarag'iga xaridorlardan olingan mablag'lardan tashqari hech qanday tushum bo'lmagan va barcha sotuvlar faqat kreditga amalga oshiriladi. Shuningdek, unda hisob-kitob hisobvarag'idan yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari boshqa to'lovlar ham bo'lmagan.

Tadbirkorning mart oyidagi tushumi nimaga teng?

**Sonli javob: 27 mln sh.b. (Hisob-kitob:  $14 - 10 + 7 - 5 + 9 + 12$ )**

---

## 24-savol

Quyidagi moddalardan qaysi biri joriy aktiv sifatida tasniflanishi kerak?

- A. Berilgan uzoq muddatli qarz bo'yicha olinadigan foizlar.
- B. Xaridorlardan olingan bo'naklar.
- C. Kelgusi davrlar daromadlari.
- D. Kechiktirilgan soliq aktivi.

## 25-savol

Quyida sanab o'tilgan xarajatlardan qaysilari kompaniyaning o'z kuchi bilan barpo etgan binosining tannarxiga kiritilishi kerak?

- A. Qurilish smetasini tayyorlagan iqtisodchining ish haqi.
- B. Qurilish olib borilayotgan er uchastkasi uchun to'langan summa.
- C. **Qurilish joyida foydalaniladigan qurilish texnikasining amortizatsiyasi.**
- D. To'lov muddatlarini buzganlik uchun qurilish materiallari etkazib beruvchisiga to'langan penya summasi.

## 26-savol

Quyida sanab o'tilganlardan qaysi biri shartli majburiyatga misol hisoblanadi?

- A. Shubhali qarzarlar bo'yicha rezerv.
  - B. Kafolatli xizmat ko'rsatish bo'yicha rezerv.
  - C. Kelgusi davrlar daromadlari.
  - D. Hali yakunlanmagan jarayon bo'yicha sud da'vosini hal qilish majburiyati.**
- 

## 27-savol

Zaxiralarning kunlardagi aylanuvchanlik koeffitsientini hisob-kitob qilishning to'g'ri usulini tanlang:

- A.  $\frac{\text{yillik tushum}}{\text{o'rtacha yillik zaxiralar}} \times 365$
  - B.  $\frac{\text{o'rtacha yillik zaxiralar}}{\text{yillik xaridlar}} \times 365$
  - C.  $\frac{\text{o'rtacha yillik zaxiralar}}{\text{yillik tushum} \times (1 - \text{foyda normasi})} \times 365$**
  - D.  $\frac{\text{yil uchun sotuvlar tannarxi}}{\text{o'rtacha yillik zaxiralar}} \times 365$
- 

## 28-savol

Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotning qaysi bo'limida kompaniyaning o'z aksiyalarini qaytib sotib olishi aks ettiriladi?

- A. Operatsion faoliyat.
  - B. Investitsiya faoliyati.
  - C. Moliyaviy faoliyat.**
  - D. Pulsiz operatsiyalar.
- 

## 29-savol

Quyida ko'rsatilgan hollarning qaysi birida ijara operatsion ijara sifatida tasniflanishi kerak?

- A. Ijara muddati aktivning xizmat muddatidan ahamiyatli darajada kamroq.
  - B. Ijara to'lovlarning diskontlangan qiymati ijara boshlangan sanadagi aktivning bozor qiymatining 20 %ini tashkil qiladi.
  - C. Ijara muddati oxirida aktivga bo'lgan mulk huquqi ijaraga beruvchida saqlanib qoladi.
  - D. Yuqorida sanab o'tilgan har bir holda ijara moliyaviy ijara sifatida tasniflanishi mumkin.**
-

### 30-savol

Agar kompaniya shubhali qarzlarini hisobga olish uchun rezervlash usulidan foydalansa, quyidagilardan qaysi biri to'g'ri bo'ladi?

- A. Shubhali qarzlar bo'yicha xarajatlar muayyan olinadigan hisobvaraqlar qaysi davrda umidsiz deb tan olinsa, o'sha davrda tan olinadi.
- B. Shubhali qarzlar bo'yicha xarajatlar mazkur davrda olinadigan hisobvaraqlarning qaysi summasi umidsiz deb tan olinishiga bog'liq emas.**
- C. «Shubhali qarzlar bo'yicha xazira» hisobvarag'ining saldosi debitorlik qarzlarini to'lov muddatlari bo'yicha tahlil qilish orqali shubhali qarzlar bo'yicha xarajat summasini hisob-kitob qilishda hisobga olinmaydi.
- D. «Shubhali qarzlar bo'yicha xazira» hisobvarag'ining saldosi kreditga sof realizatsiya qilishdan foiz usulidan foydalanilganda shubhali qarzlar bo'yicha xarajat summasiga ta'sir ko'rsatadi.

### 31-savol

Yakka tartibdagi tadbirkor R. Kanaev raqamli bosma uskunalarini sotadi, shuningdek, ularga xizmat ko'rsatish bilan ham shug'ullanadi. 20X9 yil 1 iyulda mijoz R. Kanaevga qiymati 580 mln sh.b. bo'lgan rangli printer va qiymati 120 mln sh.b. bo'lgan unga bir yil texnik xizmat ko'rsatish shartnomasiga buyurtma berdi. Printer mijozga 20X9 yil 1 sentyabrda etkazib berildi va foydalanishga tayyor holatga keltirildi. Mijoz 20X9 yil 1 dekabrda R. Kanaevga 700 mln sh.b. to'ladi.

R. Kanaev 20X9 yil uchun foyda va zarar to'g'risidagi hisobotida hamda 20X9 yil 31 dekabr holatiga ko'ra moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotida mazkur operatsiya bo'yicha tushum va shartnoma bo'yicha majburiyatni mos ravishda qanday miqdorda aks ettirishi kerakligini ko'rsating:

**Sonli javoblar: Tushum 620 mln sh.b. (Hisob-kitob:  $580 + 120 * 4 / 12 = 620$ )**

**Shartnoma bo'yicha majburiyat: 80 mln sh.b. (Hisob-kitob:  $700 - 620 = 80$ )**

### 32-savol

Quyida sanab o'tilgan operatsiyalardan qaysi biri korxona aktivlari va majburiyatlari summasining kamayishiga olib keladi?

- A. Etkazib beruvchiga bo'nak to'lash.
- B. Kreditorlik qarzini so'ndirish.**
- C. Avval to'langan bo'nak hisobidan tovarni olish.
- D. Mijozdan bo'nak olish.

### 33-savol

Yakka tartibdagi tadbirkor turli tovarlar bilan savdo qiladi. 20X6 yil 31 dekabrda uning tovarlari saqlanadigan omborda yong'in sodir bo'ldi.

20X6 yil uchun quyidagi ma'lumotlar mavjud:

- 20X6 yilda tushum 660 mln sh.b.
- barcha tovarlar uchun yagona foyda normasi – 20 %
- 20X6 yil 1 yanvar holatiga ko'ra tovarlarning tannarxi – 90 mln sh.b.
- 20X6 yil 31 dekabr holatiga ko'ra yong'indan keyin saqlanib qolgan tovarlarning tannarxi – 22 mln sh.b.
- 20X6 yilda xarid qilingan tovarlarning tannarxi – 510 mln sh.b.

Yong'in natijasida yo'q qilingan zaxiralarning qiymati nimaga teng?

**Sonli javob: 50 mln sh.b.**

**Hisob-kitob: Sotuvlar tannarxi = 660 mln sh.b.  $\times$  80% = 528 mln sh.b.**

**Chiquvchi zaxiralar = 90 mln sh.b. + 510 mln sh.b. – 528 mln sh.b. = 72 mln sh.b.**

**Yonib ketgan zaxiralar = 72 mln sh.b. – 22 mln sh.b. = 50 mln sh.b.**

---

### 34-savol

Davr mobaynida korxona tomonidan hisoblangan dividendlar summasini moliyaviy hisobotlarning qaysi biridan topish mumkin?

- A. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot.
- B. Umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot.
- C. **Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot.**
- D. Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot.

---

### 35-savol

Quyida keltirilgan operatsiyalardan qaysi biri kompaniyaning moliyaviy natijasi o'zgarishiga olib keladi?

- A. Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish.
  - B. Reklama xizmatlarini ko'rsatish uchun oldindan to'lov.
  - C. Asosiy vositalarni bozor qiymatigacha qayta baholash.
  - D. **Tovarni kreditga realizatsiya qilish.**
-

## B qismi. SENARIYLAR

### 1-senariy

Quyida «Alfa» savdo kompaniyasining 20X6 yil 31 dekabr holatiga ko'ra sinov balansi keltirilgan:

| Hisobvaraqlar                             | Debet, sh.b.     | Kredit, sh.b.    |
|-------------------------------------------|------------------|------------------|
| Er                                        | 50 000           |                  |
| Bino                                      | 500 000          |                  |
| Jamg'arilgan amortizatsiya — bino         |                  | 46 000           |
| Tovarlar                                  | 63 000           |                  |
| Savdo debitorlik qarzi                    | 35 000           |                  |
| Boshqa debitorlik qarzi                   | 12 000           |                  |
| Shubhali qarzlarni bo'yicha rezerv        |                  | 700              |
| Pul mablag'lari                           | 62 000           |                  |
| Ustav kapitali                            |                  | 200 000          |
| Taqsimlanmagan foyda                      |                  | 195 800          |
| Savdo kreditorlik qarzi                   |                  | 50 000           |
| Qisqa muddatli kredit                     |                  | 50 000           |
| Realizatsiya qilishdan olingan daromadlar |                  | 680 000          |
| Sotuvlar tannarxi                         | 410 000          |                  |
| Tijorat xarajatlari                       | 45 000           |                  |
| Ma'muriy xarajatlarni                     | 38 000           |                  |
| Foyda solig'i bo'yicha xarajatlarni       | 7 500            |                  |
| <b>JAMI</b>                               | <b>1 222 500</b> | <b>1 222 500</b> |

Shuningdek, quyidagi qo'shimcha ma'lumotlar mavjud:

1. Bino 20X3 yilning 1 fevralida foydalanishga topshirilgan. Kompaniya boshlang'ich qiymat bo'yicha hisobga olish modelidan foydalanadi, qayta baholash hech qachon amalga oshirilmagan. Binoning tugatish qiymati 20 000 sh.b.ni, foydali xizmat muddati esa 40 yilni tashkil etadi. Kompaniya amortizatsiyani hisoblashning to'g'ri chiziqli usulidan foydalanadi. Bino maydonining 80%i savdo zali, 20 %i esa ofisdan iborat.
2. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga ko'ra, 20X6 yil 31 dekabr holatiga omborda 1525 birlik tovar saqlanmoqda, kompaniya ularni odatda bir birligi uchun 65 sh.b. narxida sotadi. Omborda saqlanayotgan tovarlarning 525 birligi 20X6 yil noyabr oyida bir birligi uchun 40 sh.b. narxida, 1000 birligi esa 20X6 yil dekabr oyida bir birligi uchun 42 sh.b. narxida xarid qilingan. 20X6 yil 31 dekabrda o'tkazilgan inventarizatsiya 600 birlik tovarning buzilganligini ko'rsatdi, shu munosabat bilan ularning realizatsiya qilish narxi endi bir birlik uchun 35 sh.b.ni tashkil etadi. Kompaniya TMZni hisobga olish uchun FIFO usulidan foydalanadi.
3. «Delta» mijozining «Alfa» kompaniyasi oldida 500 sh.b. miqdorida qarzdorligi mavjud. To'lov muddati uch yildan ko'p vaqt oldin o'tib ketgan. «Alfa» kompaniyasi bu qarzni undirishdan umidini uzgan.

4. 20X6 yil noyabr oyida «Alfa» kompaniyasi «Omega» mijozining 1 800 sh.b. miqdoridagi umidsiz qarzini shubhali qarzlarni bo'yicha rezerv hisobidan hisobdan chiqargan. 20X6 yilning 20 dekabrda «Omega» mijozini ushbu qarzni to'liq so'ndirgan. Buxgalter pul kelib tushishini quyidagi o'tkazma bilan aks ettirgan: Dt «Pul mablag'lari» 1800, Kt «Realizatsiya qilishdan olingan daromadlar» 1800.
5. 50 000 sh.b. miqdoridagi qisqa muddatli kredit 20X6 yilning 1 dekabrda olingan. Foiz stavkasi — yillik 12%. Foizlar har oy, keyingi oyning 10-sanasi to'lanadi. 20X6 yil dekabr oyi uchun foizlar hisoblanmagan va hisobda aks ettirilmagan.
6. 20X6 yilning 31 avgustida kompaniya yuk avtomobili sug'urtasini bir yil oldindan 12 000 sh.b. miqdorida to'lagan. Barcha summa «Boshqa debitorlik qarzi» hisobvarag'ida aks ettirilgan. Avtomobildan mahsulotlarni mijozlarga etkazib berish uchun foydalaniladi.
7. Xodimlarning 20X6 yil dekabr oyi uchun 30 000 sh.b. miqdoridagi ish haqi hali hisoblanmagan. Ish haqi xarajatlari summasining 40 %i sotuvchilarga, qolgani esa — ofis xodimlariga tegishli. Hisoblangan ish haqidan 12 % stavka bo'yicha JSHDS ushlab qolinadi. Ish haqi va JSHDS 20X7 yil yanvar oyida to'lanadi.

**Talab qilinadi:**

1. **Taqdim etilgan operatsiyalar bo'yicha zarur tuzatuvchi o'tkazmalarni bajaring. (11 ball)**
2. **Barcha tuzatishlar kiritilgandan so'ng, 20X6 yil 31 dekabrda yakunlangan yil uchun moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzing. (2 ball)**
3. **Barcha tuzatishlar kiritilgandan so'ng, 20X6 yil 31 dekabr holatiga ko'ra moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni tuzing. (2 ball)**

**Umumiy ko'rsatmalar**

- Yopuvchi o'tkazmalarni bajarmang.
- Zarur hisob-kitoblarni keltiring.
- Zarurat bo'lganda, ishchi jadvalga hisobvaraqlarni qo'shing.
- Soliq solish masalalariga e'tibor bermang, bundan shartda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan holatlar mustasno.

## 2-senariy

Sizni «Dengiz» kichik ishlab chiqarish kompaniyasining 20X6 hisobot yili uchun moliyaviy hisobotini tayyorlashga yordam berish uchun taklif qilishdi va buning uchun Sizga quyidagi qoralama aylanma-saldo qaydnomasini taqdim etishdi:

|                                                                                | Dt         | Kt         |
|--------------------------------------------------------------------------------|------------|------------|
|                                                                                | mlrd sh.b. | mlrd sh.b. |
| dividendlar                                                                    | 16         |            |
| debitorlik qarzi                                                               | 41         |            |
| tijorat xarajatlari                                                            | 29         |            |
| oraliq hisobvaraqlar                                                           | 20         |            |
| zaxiralar                                                                      | 21         |            |
| sotuvlar tannarxi                                                              | 213        |            |
| pul mablag'lari                                                                | 7          |            |
| solliq bo'yicha xarajat                                                        | 14         |            |
| ma'muriy xarajatlari                                                           | 32         |            |
| asosiy vositalar – boshlang'ich qiymat hisobvarag'i                            | 102        |            |
| asosiy vositalar – 20X6 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jamg'arilgan amortizatsiya |            | 24         |
| tushum                                                                         |            | 310        |
| taqsimlanmagan foyda                                                           |            | 44         |
| kreditorlik qarzi                                                              |            | 37         |
| aktsiyadorlik kapitali                                                         |            | 50         |
| bankdan olingan qarz                                                           |            | 30         |
|                                                                                | <b>495</b> | <b>495</b> |

Bundan tashqari, Sizga yuqorida keltirilgan aylanma-saldo qaydnomasida bir nechta vaziyatlar hisobga olinmagani, ularni aks ettirishda kompaniya buxgalterlarida ayrim qiyinchiliklar yuzaga kelganligi ma'lum qilindi. Ushbu vaziyatlarning tafsilotlari quyidagi izohlarda keltirilgan:

1. Tushum summasiga yirik mijozga 30 mlrd sh.b. miqdoridagi mahsulot sotilishi ham kiritilgan. Sotuv hisobot yili tugashidan 2 kun oldin, mahsulot etkazib berilganidan so'ng bir hafta ichida debitorlik qarzini tezlashtirilgan tartibda so'ndirish evaziga 10 % chegirma berish sharti bilan amalga oshirilgan. Kompaniya mijoz ushbu chegirmadan foydalanishini kutmoqda, biroq hisobot sanasida qarzdorlik hali so'ndirilmagan edi.
2. Aylanma-saldo qaydnomasidagi oraliq hisobvaraqlar to'liqligicha sun'iy intellekt asosida mijozlarning to'lov qobiliyatini baholash tizimini yaratish loyihasi xarajatlardan iborat. Loyiha 20X6 yil 1 avgustda boshlangan va hisobot sanasida hali yakunlanmagan, unga har oy 4 mln sh.b. sarflangan. Yangi tizimning amaliy qo'llanilishi va o'zini oqlashi 20X6 yil 30 sentyabrda yakuniy namoyish qilingan. Ushbu vaziyat bo'yicha Siz lozim deb topgan har qanday tuzatishlar foyda va zarar to'g'risidagi hisobotda tijorat xarajatlari satrida aks ettirilishi kerak.

3. Aylanma-saldo qaydnomasida hisobga olingan bankdan olingan qarz 20X6 yil 1 sentyabrda olingan va u 20X7 yil 31 avgustda yillik 10% stavka bo'yicha hisoblanadigan foizlarni to'lash bilan bir vaqtda qaytarilishi kerak. Foiz yuqorida keltirilgan aylanma-saldo qaydnomasida hali hech qanday tarzda aks ettirilmagan.
4. 20X6 yil sentyabr oyida kompaniya mijozlaridan biri etkazib berish shartlari buzilganligi to'g'risida unga qarshi da'vo arizasi berib, kompensatsiya sifatida 40 mlrd sh.b. summani talab qildi. «Dengiz» kompaniyasi yuristlari ishtirok etgan bir nechta sud majlislari davomida da'vo summasini 11 mlrd sh.b.gacha kamaytirishga erishildi, garchi jarayon hali yakunlanmagan bo'lsa-da. 20X6 yil 31 dekabr holatiga ko'ra kompaniya yuristlari ushbu da'vo bo'yicha to'lovlardan umuman qutulish imkoniyati hali mavjud deb hisoblaydilar. Agar Siz ushbu vaziyatga nisbatan biror-bir tuzatish kiritishni lozim deb topsangiz, ularni foyda va zarar to'g'risidagi hisobotda boshqaruv xarajatlari satrida, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda esa – kreditorlik qarzi satrida aks ettirilishi lozim.
5. Kompaniyaning asosiy vositalari tarkibiga boshlang'ich qiymati 30 mlrd sh.b. bo'lgan er uchastkasi kiritilgan, qolgan qismi esa ishlab chiqarish uskunalariga tegishli. Ushbu uskunalar 12 mlrd sh.b. baholangan tugatish qiymatiga va 10 yil kutilayotgan foydali xizmat muddatiga ega. Mazkur uskunalar amortizatsiyasi sotuvlar tannarxiga kiritiladi. 20X6 yilda asosiy vositalar xarid qilinmagan yoki hisobdan chiqarilmagan.

### 1-topshiriq (2.5 ball):

«Dengiz» kompaniyasining 20X6 yil 31 dekabr holatiga moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotiga kiritilishi lozim bo'lgan asosiy vositalarning balans qiymatini hisoblab chiqaring. Buning uchun bo'sh kataklarga summalarini yozib, quyida keltirilgan shablonni to'ldiring. Zarur bo'lgan hollarda, yuqoridagi 1–5-izohlarda keltirilgan ma'lumotlar natijalari bo'yicha tuzatishlarni hisobga olishingiz kerak.

|                                          | uskunalar,<br>mlrd sh.b. | er,<br>mlrd sh.b. | jami |
|------------------------------------------|--------------------------|-------------------|------|
| boshlang'ich qiymat                      | <i>yozing</i>            | <i>yozing</i>     |      |
| minus jamg'arilgan amortizatsiya         | <i>yozing</i>            | <i>yozing</i>     |      |
| minus 20X6 yil uchun amortizatsiya       | <i>yozing</i>            | <i>yozing</i>     |      |
| 31/12/20X6 holatiga ko'ra balans qiymati |                          |                   |      |

### 2-topshiriq (12.5 ball):

20X6 yil uchun «Dengiz» kompaniyasining foyda va zarar to'g'risidagi hisobotini hamda 20X6 yil 31 dekabr holatiga ko'ra moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotini tayyorlang. Buning uchun bo'sh kataklarga summalarini yozing yoki ochiluvchi ro'yxatdan to'g'ri variantni tanlang.

Zarur bo'lgan hollarda, yuqoridagi 1–5-izohlarda keltirilgan ma'lumotlar natijalari bo'yicha tuzatishlarni hisobga olishingiz kerak.

**«Dengiz» kompaniyasining 20X6 yil uchun foyda va zararlar to'g'risidagi hisoboti**

|                                | mlrd sh.b. |
|--------------------------------|------------|
| tushum                         | yozing     |
| sotuvlar tannarxi              | yozing     |
| yalpi foyda                    |            |
| tijorat xarajatlari            | yozing     |
| boshqaruv xarajatlari          | yozing     |
| operatsion foyda               |            |
| foiz xarajatlari               | yozing     |
| solliq solingunga qadar foyda  |            |
| foyda solig'i bo'yicha xarajat | yozing     |
| yil uchun foyda                |            |

**«Dengiz» kompaniyasining 20X6 yil 31 dekabr holatiga ko'ra moliyaviy holat to'g'risidagi hisoboti**

|                                       | mlrd sh.b.                                        |
|---------------------------------------|---------------------------------------------------|
| uzoq muddatli aktivlar                |                                                   |
| asosiy vositalar                      |                                                   |
| [oraliq hisobvaraq/nomoddiy aktivlar] | yozing                                            |
|                                       |                                                   |
| aylanma aktivlar                      |                                                   |
| zaxiralar                             | yozing                                            |
| debitorlik qarzi                      | yozing                                            |
| pul                                   | yozing                                            |
| jami aktivlar                         | XXX                                               |
|                                       |                                                   |
| xususiy kapital                       |                                                   |
| aktsiyadorlik kapitali                | yozing                                            |
| taqsimlanmagan foyda                  | [44+yil uchun foyda/ 44+yil uchun foyda-16/44-16] |
|                                       |                                                   |
| qisqa muddatli majburiyatlar          |                                                   |
| kreditorlik qarzi                     | yozing                                            |
| bankdan olingan qarz                  | yozing                                            |
| jami xususiy kapital va majburiyatlar | XXX                                               |

## 1-senariy echimi

### 1-topshiriq. O'tkazmalar

#### 1. Dekabr oyi uchun amortizatsiya hisoblanishi (2 ball)

20X6 yil dekabr oyi uchun bino amortizatsiyasini hisob-kitob qilish:

- Amortizatsiyalanadigan summa =  $500\,000 - 20\,000 = 480\,000$  sh.b.
- Oylarda ifodalangan muddat =  $40 \times 12 = 480$  oy
- Oylik amortizatsiya =  $480\,000 / 480 = 1\,000$  sh.b.

Sinov balansida amortizatsiya 46 000 sh.b. miqdorida hisoblangan, bu esa dekabr oyi uchun amortizatsiya hisoblanmaganligini bildiradi.  $1000 \text{ sh.b.} \times 80\% = 800 \text{ sh.b.}$  – tijorat xarajatlari, 200 sh.b. – ma'muriy xarajatlar.

O'tkazma:

**Dt «Ma'muriy xarajatlar» – 200 sh.b.**

**Dt «Tijorat xarajatlari» – 800 sh.b.**

**Kt «Jam'arilgan amortizatsiya» – 1000 sh.b.**

#### 2. Tovarlarining qadsizlanishi (1.5 ball)

Qadsizlanish summasi hisob-kitobi:  $525 \times (40 - 35) + 75 \times (42 - 35) = 3150$  sh.b.

O'tkazma:

**Dt «Realizatsiya qilish tannarxi» 3150 sh.b.**

**Kt «Tovarlar» 3150 sh.b.**

#### 3. Debitorlik qarzini rezerv hisobidan hisobdan chiqarish (1 ball)

**Dt «Shubhali qarzlari bo'yicha rezerv» 500 sh.b.**

**Kt «Savdo debitorlik qarzi» 500 sh.b.**

#### 4. Rezervni tiklash (1.5 ball)

Xato o'tkazma:

**Dt «Pul mablag'lari» 1800 sh.b.**

**Kt «Realizatsiya qilishdan olingan daromadlar» 1800 sh.b.**

Quyidagicha amalga oshirilishi kerak edi:

Dt «Pul mablag'lari» 1800 sh.b.

Kt «Shubhali qarzlarni bo'yicha rezerv» 1800 sh.b.

Tuzatuvchi o'tkazma:

**Dt «Realizatsiya qilishdan olingan daromadlar» 1800 sh.b.**

**Kt «Shubhali qarzlarni bo'yicha rezerv» 1800 sh.b.**

Xuddi shunday o'zgarishlarga olib keladigan boshqa o'tkazmalarga ham yo'l qo'yiladi, masalan, xato o'tkazmani storno qilish va to'g'risini bajarish orqali.

### 5. Dekabr oyi uchun foizlar hisoblash (1,5 ball)

20X6 yil dekabr oyi uchun foizlarni hisob-kitob qilish:  $50\,000 \times 12\% / 12 = 500$  sh.b. (kunlik asosda hisob-kitob qilishga yo'l qo'yiladi)

O'tkazma:

**Dt «Foizli xarajatlar» 500 sh.b.**

**Kt «To'lanadigan foizlar» 500 sh.b.**

### 6. Sug'urta xarajatlariga tuzatish kiritish (2 ball)

Muddati o'tgan sug'urta hisob-kitobi:  $12\,000 / 12 \times 4 = 4\,000$  sh.b.

O'tkazma:

**Dt «Kelgusi davr xarajatlari» 8 000 sh.b.**

**Dt «Tijorat xarajatlari» 4 000 sh.b.**

**Kt «Boshqa debitorlik qarzi» 12 000 sh.b.**

### 7. Ish haqi va JSHDS hisoblash (1,5 ball)

Hisoblangan ish haqi = 30 000 sh.b. JSHDS =  $30\,000 \times 12\% = 3\,600$  sh.b. To'lanadigan ish haqi =  $30\,000 - 3\,600 = 26\,400$  sh.b.

Funktsiyalar bo'yicha taqsimlash: sotuv bo'limi (40 %) =  $30\,000 \times 40\% = 12\,000$  sh.b. tijorat xarajatlariga; ma'muriyat (60 %) =  $30\,000 \times 60\% = 18\,000$  sh.b. ma'muriy xarajatlarga

**O'tkazma:**

Dt «Tijorat xarajatlari» 12 000 sh.b.

Dt «Ma'muriy xarajatlar» 18 000 sh.b.

Kt «To'lanadigan JSHDS» 3 600 sh.b.

Kt «To'lanadigan ish haqi» 26 400 sh.b.

**2-topshiriq.** 20X6 yil uchun moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2 ball). Tekshiruvchi uchun izoh – agar jadvaldagi ko'rsatkichlar noto'g'ri bo'lsa-yu, biroq ular o'tkazmalardagi xatolar oqibati bo'lsa, ushbu topshiriq uchun ball pasaytirilmasligi kerak.

| Ko'rsatkich nomi                    | Summa          |
|-------------------------------------|----------------|
| Tushum                              | 678 200        |
| Sotuvlar tannarxi                   | (413 150)      |
| <b>Yalpi foyda</b>                  | <b>265 050</b> |
| Tijorat xarajatlari                 | (61 200)       |
| Ma'muriy xarajatlar                 | (56 800)       |
| <b>Operatsion foyda</b>             | <b>147 050</b> |
| Foizli xarajatlar                   | (500)          |
| <b>Soliq solingunga qadar foyda</b> | <b>146 550</b> |
| Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar   | (7 500)        |
| <b>Sof foyda</b>                    | <b>139 050</b> |

**3-topshiriq.** Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (2 ball). Tekshiruvchi uchun izoh – agar jadvaldagi ko'rsatkichlar noto'g'ri bo'lsa-yu, biroq o'tkazmalardagi xatolar oqibati bo'lsa, ushbu topshiriq uchun ball pasaytirilmasligi kerak.

| AKTIVLAR               | Summa   |
|------------------------|---------|
| Uzoq muddatli aktivlar |         |
| Er                     | 50 000  |
| Bino                   | 500 000 |

(Davomi)

| AKTIVLAR                                                              | Summa          |
|-----------------------------------------------------------------------|----------------|
| Jamg'arilgan amortizatsiya                                            | (47 000)       |
| Jami uzoq muddatli aktivlar                                           | 503 000        |
| Aylanma aktivlar                                                      |                |
| Tovarlar                                                              | 59 850         |
| Savdo debitorlik qarzi (2 000 sh.b. summada rezerv chegirilgan holda) | 32 500         |
| Kelgusi davr xarajatlari (oldindan to'langan sug'urta)                | 8 000          |
| Pul mablag'lari                                                       | 62 000         |
| Jami aylanma aktivlar                                                 | 162 000        |
| <b>JAMI AKTIVLAR</b>                                                  | <b>665 350</b> |

| KAPITAL VA MAJBURIYATLAR             | Summa          |
|--------------------------------------|----------------|
| Kapital                              |                |
| Ustav kapitali                       | 200 000        |
| Taqsimlanmagan foyda                 | 334 850        |
| Jami kapital                         | 534 850        |
| Qisqa muddatli majburiyatlar         |                |
| Savdo kreditorlik qarzi              | 50 000         |
| Qisqa muddatli kredit                | 50 000         |
| To'lanadigan foizlar                 | 500            |
| Hisoblangan ish haqi                 | 26 400         |
| O'tkaziladigan JSHDS                 | 3 600          |
| Jami majburiyatlar                   | 130 500        |
| <b>JAMI KAPITAL VA MAJBURIYATLAR</b> | <b>665 350</b> |

## 2-senariyga javob

### 1-topshiriq:

|                                    | uskunalar  | er         | jami |
|------------------------------------|------------|------------|------|
|                                    | mlrd sh.b. | mlrd sh.b. |      |
| boshlang'ich qiymat                | 72         | 30         |      |
| minus jamg'arilgan amortizatsiya   | 24         | 0          |      |
| minus 20X6 yil uchun amortizatsiya | 6          | 0          |      |
| 31/12/20X6 holatiga balans qiymati |            |            |      |

O'quv rejasining 3.4.C bandiga qarang.

### 2-topshiriq:

«Dengiz» kompaniyasining 20X6 yil uchun foyda va zarar to'g'risidagi hisoboti

|                                | mlrd sh.b. |
|--------------------------------|------------|
| tushum                         | 307        |
| sotuvlar tannarxi              | 219        |
| yalpi foyda                    |            |
| tijorat xarajatlari            | 37         |
| boshqaruv xarajatlari          | 43         |
| operatsion foyda               |            |
| foizli xarajatlar              | 1          |
| soliq solingunga qadar foyda   |            |
| foyda solig'i bo'yicha xarajat | 14         |
| yil uchun foyda                |            |

«Dengiz» kompaniyasining 20X6 yil 31 dekabr holatiga moliyaviy holat to'g'risidagi hisoboti

|                                          | mlrd sh.b.                     |
|------------------------------------------|--------------------------------|
| uzoq muddatli aktivlar                   |                                |
| asosiy vositalar                         |                                |
| [nomoddiy aktivlar]                      | 12                             |
| aylanma aktivlar                         |                                |
| zaxiralar                                | 21                             |
| debitorlik qarzi                         | 38                             |
| pul                                      | 7                              |
| jami aktivlar                            | XXX                            |
| xususiy kapital                          |                                |
| aktsiyadorlik kapitali                   | 50                             |
| taqsimlanmagan foyda                     | [44 + yil uchun foyda<br>– 16] |
| qisqa muddatli majburiyatlar             |                                |
| kreditorlik qarzi                        | 48                             |
| bankdan olingan qarz                     | 31                             |
| jami xususiy kapital<br>va majburiyatlar | XXX                            |

O'quv rejasining 3.4.B va 3.4.C bandlariga qarang.

## «Moliyaviy hisob va hisobot asoslari» imtihonining tuzilmasiga doir izohlar

Imtihan tuzilmasining quyida keltirilgan parametrlari e'lon qilish uchun mo'ljallanmagan, ularning maqsadi – keyingi imtihonlarni yaratishda imtihan oluvchilar uchun mo'ljal bo'lib xizmat qilishdir.

Ballarning 10 foizdan 20 foizgachasi nazariyani to'g'ridan-to'g'ri sinovdan o'tkazishga oid savollarga (ta'riflar, kontseptsiyalar va h.k.), 90 foizdan 80 foizgachasi esa hisob-kitoblarga va nazariy bilimlarni muayyan vaziyatga qo'llashga oid savollarga to'g'ri keladi.

Savollarning murakkablik darajasi bo'yicha ballarning taqsimlanishi:

- 60 % ball o'rtacha murakkablik darajasidagi savollarga tegishli
- 20 % ball o'rtachadan yuqori murakkablik darajasidagi savollarga tegishli
- 20 % ball o'rtachadan past murakkablik darajasidagi savollarga tegishli

Imtihan bo'limlari bo'yicha savollarning taqsimlanishi:

| Bo'lim nomi                                                                   | Vazni        |
|-------------------------------------------------------------------------------|--------------|
| 1. Moliyaviy hisobot tashqi foydalanuvchilar bilan muloqot mexanizmi sifatida | 8 %          |
| 2. Tashkilotning asosiy operatsiyalarini hisobga olish *                      | 33 %         |
| 3. Moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayoni**                                  | 30 %         |
| 4. To'liq bo'lmagan yozuvlardan moliyaviy hisobotni tiklash                   | 6 %          |
| 5. Kompaniyalar guruhi uchun hisobot tayyorlash tamoyillari                   | 15 %         |
| 6. Moliyaviy hisobotning bazaviy tahlili                                      | 8 %          |
|                                                                               | <b>100 %</b> |

\* Har bir kichik bo'limga o'rtacha 2 tadan savol

\*\* V qismining ikkita savolidan biri majburiy ravishda hisobotni tayyorlashni o'z ichiga oladi. Izohlar imtihonning A qismidagi 2-bo'lim savollarini mazmuni va mavzulari bo'yicha takrorlamasligi uchun ularning muvozanatlanganligini kuzatib borish lozim.

# V.FR

## Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари

2026 йилги имтиҳон намунаси



## Мундарижа

|                                                                                  |    |
|----------------------------------------------------------------------------------|----|
| А қисми. САВОЛЛАР .....                                                          | 2  |
| В қисми. СЦЕНАРИЙЛАР .....                                                       | 13 |
| 1-сценарий.....                                                                  | 13 |
| 2-сценарий.....                                                                  | 15 |
| 1-сценарий ечими.....                                                            | 18 |
| 2-сценарийга жавоб .....                                                         | 22 |
| «Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари» имтиҳонининг тузилмасига доир изоҳлар ..... | 23 |

# B.FR Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари

## Имтиҳон намунаси

### А қисми. САВОЛЛАР

#### 1-савол

Компания ўз активлари ва мажбуриятларини яқин келажакда фаолиятини иш фаоллигини аҳамиятли даражада пасайтирмаган ҳолда амалга ошириши тахминидан келиб чиқиб ҳисобга олади. Ушбу тамойил қандай номланади?

- A. Эҳтиёткорлик тамойили.
- B. Мувофиқлик тамойили.
- C. Ҳисоблаш тамойили.
- D. Фаолиятнинг узлуксизлиги тамойили.

---

#### 2-савол

20X6 йил 1 августда компания номинал қиймати 144 000 ш.б. бўлган 11 фоизли векселни 8 ой муддатга 148 000 ш.б. нархда чиқарди. 20X6 йилдаги фоиз харажатлари суммаси қанчага тенг?

**Сонли жавоб: 4 100 ш.б. (Ҳисоб-китоб:  $144\,000 * 11\% * 5/12 - (148\,000 - 144\,000) * 5/8$ )**

---

#### 3-савол

Корхонанинг 20X6 йилдаги соф фойдаси 120 000 ш.б.ни ташкил этди. Амортизация харажатлари 55 000 ш.б.ни ташкил этди. 20X6 йил давомида асосий воситалар 80 000 ш.б.га сотилди (бошланғич қиймати – 130 000 ш.б., жамғарилган амортизация – 65 000 ш.б.). 20X6 йилда олинган ҳисобварақлар суммаси 25 000 ш.б.га камайди, тақсимланмаган фойда суммаси эса 60 000 ш.б.га ошди. Операцион фаолиятдан олинган пул маблағларининг соф оқими нимага тенг?

**Сонли жавоб: 185 000 ш.б. (Ҳисоб-китоб:  $120\,000 + 55\,000 - (80\,000 - 130\,000 + 65\,000) + 25\,000$ )**

#### 4-савол

20X6 йилда компания бошқа компаниянинг облигацияларини 50 000 ш.б.га сотиб олди, 78 000 ш.б.га ўз акцияларини чиқарди, 35 000 ш.б. суммада дивидендлар тўлади ва 21 000 ш.б. суммада фойда солиғи бўйича жорий қарзни сўндирди. Молиявий фаолиятдан олинган пул маблағларининг соф оқими нимага тенг?

**Сонли жавоб: 43 000 ш.б. (Ҳисоб-китоб:  $+ 78\,000 - 35\,000 = 43\,000$ )**

---

#### 5-савол

Компания 400 000 ш.б.га ер участкасини ва ундаги бинони сотиб олди. Ер участкасининг бозор қиймати 120 000 ш.б.ни, бинонинг бозор қиймати эса 360 000 ш.б.ни ташкил этади. Компания ер участкасини қандай қиймат бўйича ҳисобга қабул қилиши керак?

**Сонли жавоб: 100 000 ш.б. (Ҳисоб-китоб:  $120\,000 / (120\,000 + 360\,000) * 400\,000 = 100\,000$ )**

---

#### 6-савол

Қуйидаги операциялардан қайси бири ҳам активлар, ҳам мажбуриятлар суммасининг ошишига олиб келади?

- A. Оддий акцияларни чиқариш.
  - B. Қарздордан пул маблағларини олиш.
  - C. **Хизмат учун олдиндан тўлов олиш.**
  - D. Бошқа компаниянинг облигацияларини сотиб олиш.
- 

#### 7-савол

Корхонанинг ўз муассисларига дивиденд сифатида тўлаши керак бўлган пул маблағлари суммасини молиявий ҳисоботларнинг қайси биридан топиш мумкин?

- A. **Молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот.**
  - B. Жами даромад тўғрисидаги ҳисобот.
  - C. Хусусий капитал тўғрисидаги ҳисобот.
  - D. Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот.
-

## 8-савол

Катта эҳтимол билан дебиторлик қарзининг айланувчанлик даври қисқаришига олиб келадиган вазият тавсифини танланг:

- A. Савдо кредитини беришда камроқ қатъий бўлган назорат тартиб-таомилларига ўтиш.
- B. Кредитга харид қилишда харидорларга таклиф этиладиган тезлаштирилган тўлов учун чегирма фоизини ошириш.
- C. **Савдо кредитини беришда қатъийроқ назорат тартиб-таомилларига ўтиш.**
- D. Ҳисобот даври давомида кредитга сотиш ҳажмининг камайиши.

## 9-савол

«Альфа» компанияси бошқа бир компаниянинг 5%лик акциялар пакетига эгалик қилади. Мазкур компания 20X6 йилда 80 000 ш.б. миқдорида фойда олганини эълон қилди. Ушбу сумманинг 75 %ини дивиденд сифатида тақсимлашга қарор қилинди. Қандай сумма 20X6 йилда «Альфа» компаниясининг даромади сифатида тан олиниши керак?

**Сонли жавоб: 3 000 ш.б. (Ҳисоб-китоб:  $80\,000 * 75\% * 5\% = 3\,000$ )**

## 10-савол

Қуйида келтирилган ҳисобварақалардан қайси бири контр-пассив ҳисобварақ ҳисобланади?

- A. Шубҳали қарзлар бўйича резерв.
- B. Кафолатли хизмат кўрсатиш бўйича резерв.
- C. **Чиқарилган облигациялар бўйича чегирмалар.**
- D. Эмиссия даромади.

## 11-савол

Қуйида келтирилган молиявий ҳисобот фойдаланувчиларидан қайси бири корхонада молиявий манфаатга эга **БЎЛМАГАН** фойдаланувчилар жумласига киради?

- A. **Давлат солиқ хизмати.**
- B. Корхона кредитори.
- C. Потенциал муассис.
- D. Корхона муассиси.

## 12-савол

Қуйида кўрсатилган моддалардан қайси бири жорий актив сифатида таснифланади?

- A. Гудвил.
- B. Келгуси даврлар даромадлари.
- C. Кечиктирилган солиқ активи.
- D. **Келгуси даврлар харажатлари.**

## 13-савол

Компания ягона товарни 15% фойда нормаси билан реализация қилади. Товарнинг таннархи бир бирлик учун 136 000 ш.б.ни ташкил этади. Товарнинг бир бирлиги қандай нархда сотилади?

**Сонли жавоб: 160 000 ш.б. (Ҳисоб-китоб:  $136\,000 / (1 - 0,15) = 160\,000$ )**

## 14-савол

Компания 40 000 ш.б.ни йиллик 8% ставка бўйича, ҳар чорақда оддий фоизлар ҳисобланадиган 3 йиллик депозитга қўйишни режалаштирмоқда. Омонат муддати охирида компаниянинг ҳисоб-китоб ҳисобварағида қанча сумма бўлади?

**Сонли жавоб: 49 600 ш.б. (Ҳисоб-китоб:  $40\,000 + 40\,000 * 8\% * 3$ )**

## 15-савол

20X6 йил январь ойи бошида компания омборида ҳар бирининг таннархи 12 ш.б. бўлган 150 бирлик товар сақланаётган эди. 8 январь куни компания 7 290 ш.б.га 540 бирлик товар харид қилди, 15 январда эса ўз харидорига 600 бирлик товарни жўнатди. Январ ойида ушбу товар билан боғлиқ бошқа операциялар бўлмаган. Январ ойи охирида компания омборида умумий қиймати 1 140 ш.б. бўлган 90 бирлик товар сақланган. Ушбу компанияда захираларни ҳисобга олишнинг қайси усули қўлланилади?

- A. FIFO усули.
- B. Ўртача тортилган қиймат усули.
- C. **Махсус идентификация усули.**
- D. LIFO усули.

**Тестга шарҳ: бошқа усуллар давр охиридаги таннархнинг бошқа баҳосини беради.**

---

## 16-савол

МҲХСга мувофиқ тайёрланган қуйидаги ҳисоботларнинг қайси бирида фойдаланувчи компаниянинг асосий воситалари давр мобайнида қайта баҳоланиши оқибатларини кўра **ОЛМАСЛИГИНИ** кўрсатинг?

- A. Фойда ва зарар ҳамда бошқа умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисоботда.
  - B. Пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисоботда.**
  - C. Хусусий капиталдаги ўзгаришлар тўғрисидаги ҳисоботда.
  - D. Молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда.
- 

## 17-савол

Ҳисоботлар ўз мазмунини заруратдан ортиқча мураккаблаштирмаган ҳолда тақдим этилиши керак. Юқоридаги ибора сифат тавсифларидан қайси бирини ифодалайди?

- A. Ишончлилик.
  - B. Нейтраллик.
  - C. Тўлиқлик.
  - D. Тушунарлилик.**
- 

## 18-савол #осон, #назарий

Қуйида келтирилган ҳисобварақлардан қайси бири хусусий капитални ҳисобга олиш ҳисобварағи **ҳисобланмайди**?

- A. Оддий акциялар.
  - B. Шубҳали қарзлар бўйича резерв.**
  - C. Резерв капитали.
  - D. Эмиссия даромади.
- 

## 19-савол

Қуйида келтирилганлардан қайси бири шартли активларни ҳисоботда акс эттиришга нисбатан тўғри ҳисобланади?

- A. Шартли активлар ҳеч қандай ҳолатда на молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда, на ҳисоботга илова қилинадиган изоҳларда акс эттирилмайди.
-

- B. **Шартли активлар молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда акс эттирилмайди, бироқ келгусида наф олиш эҳтимоли юқори бўлса, изоҳларда очиб беришга йўл қўйилади.**
- C. Агар келгусида наф олиш эҳтимоли юқори бўлса, шартли активлар молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда акс эттирилиши мумкин.
- D. Шартли активлар молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда акс эттирилмайди, бироқ ҳисоботга илова қилинадиган изоҳларда акс эттирилиши керак.
- 

## 20-савол

Бухгалтер ўзи ишлаётган компания тўғрисидаги ички маълумотлардан фонд бозорида унинг акциялари билан савдо қилишдан наф кўриш учун фойдаланди. У қайси ахлоқий тамойилни бузди?

- A. Касбий лаёқатлилиқ.
- B. Нейтраллик.
- C. **Махфийлик.**
- D. Касбий хулқ.
- 

## 21-савол

Молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот бўлимларидан қайси бирида номоддий активлар бўйича жамғарилган амортизация кўрсатилиши керак?

- A. Жорий активлар.
- B. Хусусий капитал.
- C. Контр-активлар.
- D. **Узоқ муддатли активлар.**
- 

## 22-савол

Шубҳали қарзлар бўйича баҳоланган резерв одатда молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот бўлимларининг қайси бирида тақдим этилади?

- A. Узоқ муддатли активлар.
- B. **Жорий активлар.**
- C. Узоқ муддатли мажбуриятлар.
- D. Жорий мажбуриятлар.
-

## 23-савол

Сизга якка тартибдаги тадбиркорнинг март ойидаги бизнес операцияларига нисбатан қуйидаги маълумотлар тақдим этилган:

- 1 март ҳолатига кўра дебиторлик қарзи – 10 млн ш.б.
- 31 март ҳолатига кўра дебиторлик қарзи – 14 млн ш.б.
- 1 март ҳолатига кўра банкдаги пул маблағлари – 5 млн ш.б.
- 31 март ҳолатига кўра банкдаги пул маблағлари – 7 млн ш.б.
- Дўкон учун у томондан сотиб олинadиган товарлар учун ҳисоб-китоб ҳисобварағидан қилинган олдиндан тўлов – 12 млн ш.б.
- Ҳисоб-китоб ҳисобварағидан ходимларга тўланган иш ҳақи – 9 млн ш.б.

Шунингдек, сизга маълумки, март ойида тадбиркорнинг ҳисоб-китоб ҳисобварағига харидорлардан олинган маблағлардан ташқари ҳеч қандай тушум бўлмаган ва барча сотувлар фақат кредитга амалга оширилади. Шунингдек, унда ҳисоб-китоб ҳисобварағидан юқорида кўрсатилганлардан ташқари бошқа тўловлар ҳам бўлмаган.

Тадбиркорнинг март ойидаги тушуми нимага тенг?

**Сонли жавоб: 27 млн ш.б. (Ҳисоб-китоб:  $14 - 10 + 7 - 5 + 9 + 12$ )**

---

## 24-савол

Қуйидаги моддалардан қайси бири жорий актив сифатида таснифланиши керак?

- A. Берилган узоқ муддатли қарз бўйича олинadиган фоизлар.
- B. Харидорлардан олинган бўнақлар.
- C. Келгуси даврлар даромадлари.
- D. Кечиктирилган солиқ активи.

## 25-савол

Қуйида санаб ўтилган харажатлардан қайсилари компаниянинг ўз кучи билан барпо этган биносининг таннархига киритилиши керак?

- A. Қурилиш сметасини тайёрлаган иқтисодчининг иш ҳақи.
- B. Қурилиш олиб борилаётган ер участкаси учун тўланган сумма.
- C. **Қурилиш жойида фойдаланиладиган қурилиш техникасининг амортизацияси.**
- D. Тўлов муддатларини бузганлик учун қурилиш материаллари етказиб берувчисига тўланган пеня суммаси.

## 26-савол

Қуйида санаб ўтилганлардан қайси бири шартли мажбуриятга мисол ҳисобланади?

- A. Шубҳали қарзлар бўйича резерв.
- B. Кафолатли хизмат кўрсатиш бўйича резерв.
- C. Келгуси даврлар даромадлари.
- D. **Ҳали якунланмаган жараён бўйича суд даъвосини ҳал қилиш мажбурияти.**

## 27-савол

Захираларнинг кунлардаги айланувчанлик коэффицентини ҳисоб-китоб қилишнинг тўғри усулини танланг:

- A.  $\frac{\text{йиллик тушум}}{\text{ўртача йиллик захиралар}} \times 365$
- B.  $\frac{\text{ўртача йиллик захиралар}}{\text{йиллик харидлар}} \times 365$
- C.  $\frac{\text{ўртача йиллик захиралар}}{\text{йиллик тушум} \times (1 - \text{фойда нормаси})} \times 365$
- D.  $\frac{\text{йил учун сотувлар таннархи}}{\text{ўртача йиллик захиралар}} \times 365$

## 28-савол

Пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисоботнинг қайси бўлимида компаниянинг ўз акцияларини қайтиб сотиб олиши акс эттирилади?

- A. Операцион фаолият.
- B. Инвестиция фаолияти.
- C. **Молиявий фаолият.**
- D. Пулсиз операциялар.

## 29-савол

Қуйида кўрсатилган ҳолларнинг қайси бирида ижара операцион ижара сифатида таснифланиши керак?

- A. Ижара муддати активнинг хизмат муддатидан аҳамиятли даражада камроқ.
- B. Ижара тўловларининг дисконтланган қиймати ижара бошланган санадаги активнинг бозор қийматининг 20%ини ташкил қилади.

- C. Ижара муддати охирида активга бўлган мулк ҳуқуқи ижарага берувчида сақланиб қолади.
- D. **Юқорида санаб ўтилган ҳар бир ҳолда ижара молиявий ижара сифатида таснифланиши мумкин.**
- 

### 30-савол

Агар компания шубҳали қарзларни ҳисобга олиш учун резервлаш усулидан фойдаланса, қуйидагилардан қайси бири тўғри бўлади?

- A. Шубҳали қарзлар бўйича харажатлар муайян олинadиган ҳисобварақ қайси даврда умидсиз деб тан олинса, ўша даврда тан олинади.
- B. **Шубҳали қарзлар бўйича харажатлар мазкур даврда олинadиган ҳисобварақларнинг қайси суммаси умидсиз деб тан олинishiга боғлиқ эмас.**
- C. «Шубҳали қарзлар бўйича захира» ҳисобварағининг сальдоси дебиторлик қарзларини тўлов муддатлари бўйича таҳлил қилиш орқали шубҳали қарзлар бўйича харажат суммасини ҳисоб-китоб қилишда ҳисобга олинмайди.
- D. «Шубҳали қарзлар бўйича захира» ҳисобварағининг сальдоси кредитга соф реализация қилишдан фоиз усулидан фойдаланилганда шубҳали қарзлар бўйича харажат суммасига таъсир кўрсатади.
- 

### 31-савол

Якка тартибдаги тадбиркор Р. Канаев рақамли босма ускуналарини сотади, шунингдек, уларга хизмат кўрсатиш билан ҳам шуғулланади. 20X9 йил 1 июлда мижоз Р. Канаевга қиймати 580 млн ш.б. бўлган рангли принтерга ва қиймати 120 млн ш.б. бўлган унга бир йил техник хизмат кўрсатиш шартномасига буюртма берди. Принтер мижозга 20X9 йил 1 сентябрда етказиб берилди ва фойдаланишга тайёр ҳолатга келтирилди. Мижоз 20X9 йил 1 декабрда Р. Канаевга 700 млн ш.б. тўлади.

Р. Канаев 20X9 йил учун фойда ва зарар тўғрисидаги ҳисоботида ҳамда 20X9 йил 31 декабрь ҳолатига кўра молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботида мазкур операция бўйича тушум ва шартнома бўйича мажбуриятни мос равишда қандай миқдорда акс эттириши кераклигини кўрсатинг:

**Сонли жавоблар: Тушум 620 млн ш.б. (Ҳисоб-китоб:  $580 + 120 * 4 / 12 = 620$ )**

**Шартнома бўйича мажбурият: 80 млн ш.б. (Ҳисоб-китоб:  $700 - 620 = 80$ )**

---

### 32-савол

Қуйида санаб ўтилган операциялардан қайси бири корхона активлари ва мажбуриятлари суммасининг камайишига олиб келади?

- A. Етказиб берувчига бўнак тўлаш.
- B. Кредиторлик қарзини сўндириш.**
- C. Аввал тўланган бўнак ҳисобидан товарни олиш.
- D. Мижоздан бўнак олиш.

### 33-савол

Якка тартибдаги тадбиркор турли товарлар билан савдо қилади. 20X6 йил 31 декабрда унинг товарлари сақланадиган омборда ёнғин содир бўлди.

20X6 йил учун қуйидаги маълумотлар мавжуд:

- 20X6 йилда тушум 660 млн ш.б.
- барча товарлар учун ягона фойда нормаси – 20%
- 20X6 йил 1 январь ҳолатига кўра товарларнинг таннари – 90 млн ш.б.
- 20X6 йил 31 декабрь ҳолатига кўра ёнғиндан кейин сақланиб қолган товарларнинг таннари – 22 млн ш.б.
- 20X6 йилда харид қилинган товарларнинг таннари – 510 млн ш.б.

Ёнғин натижасида йўқ қилинган захираларнинг қиймати нимага тенг?

**Сонли жавоб: 50 млн ш.б.**

**Ҳисоб-китоб: Сотувлар таннари = 660 млн ш.б. × 80% = 528 млн ш.б.**

**Чиқувчи захиралар = 90 млн ш.б. + 510 млн ш.б. – 528 млн ш.б. = 72 млн ш.б.**

**Ёниб кетган захиралар = 72 млн ш.б. – 22 млн ш.б. = 50 млн ш.б.**

### 34-савол

Давр мобайнида корхона томонидан ҳисобланган дивидендлар суммасини молиявий ҳисоботларнинг қайси биридан топиш мумкин?

- A. Молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот.
- B. Умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисобот.
- C. Хусусий капитал тўғрисидаги ҳисобот.**
- D. Пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот.

### 35-савол

Қуйида келтирилган операциялардан қайси бири компаниянинг молиявий натижаси ўзгаришига олиб келади?

- A. Товар-моддий захираларни харид қилиш.
  - B. Реклама хизматларини кўрсатиш учун олдиндан тўлов.
  - C. Асосий воситаларни бозор қийматигача қайта баҳолаш.
  - D. Товари кредитга реализация қилиш.**
-

## В қисми. СЦЕНАРИЙЛАР

### 1-сценарий

Қуйида «Альфа» савдо компаниясининг 20X6 йил 31 декабрь ҳолатига кўра синов баланси келтирилган:

| Ҳисобварақ                             | Дебет, ш.б.      | Кредит, ш.б.     |
|----------------------------------------|------------------|------------------|
| Ер                                     | 50 000           |                  |
| Бино                                   | 500 000          |                  |
| Жамғарилган амортизация — бино         |                  | 46 000           |
| Товарлар                               | 63 000           |                  |
| Савдо дебиторлик қарзи                 | 35 000           |                  |
| Бошқа дебиторлик қарзи                 | 12 000           |                  |
| Шубҳали қарзлар бўйича резерв          |                  | 700              |
| Пул маблағлари                         | 62 000           |                  |
| Устав капитали                         |                  | 200 000          |
| Тақсимланмаган фойда                   |                  | 195 800          |
| Савдо кредиторлик қарзи                |                  | 50 000           |
| Қисқа муддатли кредит                  |                  | 50 000           |
| Реализация қилишдан олинган даромадлар |                  | 680 000          |
| Сотувлар таннари                       | 410 000          |                  |
| Тижорат харажатлари                    | 45 000           |                  |
| Маъмурий харажатлар                    | 38 000           |                  |
| Фойда солиғи бўйича харажатлар         | 7 500            |                  |
| <b>ЖАМИ</b>                            | <b>1 222 500</b> | <b>1 222 500</b> |

Шунингдек, қуйидаги қўшимча маълумотлар мавжуд:

1. Бино 20X3 йилнинг 1 февralида фойдаланишга топширилган. Компания бошланғич қиймат бўйича ҳисобга олиш моделидан фойдаланади, қайта баҳолаш ҳеч қачон амалга оширилмаган. Бинонинг тугатиш қиймати 20 000 ш.б.ни, фойдали хизмат муддати эса 40 йилни ташкил этади. Компания амортизацияни ҳисоблашнинг тўғри чизиқли усулидан фойдаланади. Бино майдонининг 80%и савдо зали, 20%и эса офисдан иборат.
2. Бухгалтерия ҳисоби маълумотларига кўра, 20X6 йил 31 декабрь ҳолатига омборда 1525 бирлик товар сақланмоқда, компания уларни одатда бир бирлиги учун 65 ш.б. нархида сотади. Омборда сақланаётган товарларнинг 525 бирлиги 20X6 йил ноябрь ойида бир бирлиги учун 40 ш.б. нархида, 1000 бирлиги эса 20X6 йил декабрь ойида бир бирлиги учун 42 ш.б. нархида харид қилинган. 20X6 йил 31 декабрда ўтказилган инвентаризация 600 бирлик товарнинг бузилганлигини кўрсатди, шу муносабат билан уларнинг реализация қилиш нархи энди бир бирлик учун 35 ш.б.ни ташкил этади. Компания ТМЗни ҳисобга олиш учун ФИФО усулидан фойдаланади.
3. «Дельта» мижозининг «Альфа» компанияси олдида 500 ш.б. миқдорида қарздорлиги мавжуд. Тўлов муддати уч йилдан кўп вақт олдин ўтиб кетган. «Альфа» компанияси бу қарзни ундиришдан умидини узган.

4. 20X6 йил ноябрь ойида «Альфа» компанияси «Омега» мижозининг 1 800 ш.б. миқдоридаги умидсиз қарзини шубҳали қарзлар бўйича резерв ҳисобидан ҳисобдан чиқарган. 20X6 йилнинг 20 декабрида «Омега» мижози ушбу қарзни тўлиқ сўндирган. Бухгалтер пул келиб тушишини қўйидаги ўтказма билан акс эттирган: Дт «Пул маблағлари» 1800, Кт «Реализация қилишдан олинган даромадлар» 1800.
5. 50 000 ш.б. миқдоридаги қисқа муддатли кредит 20X6 йилнинг 1 декабрида олинган. Фоиз ставкаси — йиллик 12%. Фоизлар ҳар ой, кейинги ойнинг 10-санасида тўланади. 20X6 йил декабрь ойи учун фоизлар ҳисобланмаган ва ҳисобда акс эттирилмаган.
6. 20X6 йилнинг 31 августида компания юк автомобили суғуртасини бир йил олдиндан 12 000 ш.б. миқдорида тўлаган. Барча сумма «Бошқа дебиторлик қарзи» ҳисобварағида акс эттирилган. Автомобилдан маҳсулотларни мижозларга етказиб бериш учун фойдаланилади.
7. Ходимларнинг 20X6 йил декабрь ойи учун 30 000 ш.б. миқдоридаги иш ҳақи ҳали ҳисобланмаган. Иш ҳақи харажатлари суммасининг 40 %и сотувчиларга, қолгани эса — офис ходимларига тегишли. Ҳисобланган иш ҳақидан 12 % ставка бўйича ЖШДС ушлаб қолинади. Иш ҳақи ва ЖШДС 20X7 йил январь ойида тўланади.

**Талаб қилинади:**

1. Тақдим этилган операциялар бўйича зарур тузатувчи ўтказмаларни бажаринг. (11 балл)
2. Барча тузатишлар киритилгандан сўнг, 20X6 йил 31 декабрда якунланган йил учун молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисоботни тузинг. (2 балл)
3. Барча тузатишлар киритилгандан сўнг, 20X6 йил 31 декабрь ҳолатига кўра молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботни тузинг. (2 балл)

**Умумий кўрсатмалар**

- Ёпувчи ўтказмаларни бажарманг.
- Зарур ҳисоб-китобларни келтиринг.
- Зарурат бўлганда, ишчи жадвалга ҳисобварақларни қўшинг.
- Солиқ солиш масалаларига эътибор берманг, бундан шартда тўғридан-тўғри кўрсатилган ҳолатлар мустасно.

## 2-сценарий

Сизни «Денгиз» кичик ишлаб чиқариш компаниясининг 20X6 ҳисобот йили учун молиявий ҳисоботини тайёрлашга ёрдам бериш учун таклиф қилишди ва бунинг учун Сизга қуйидаги қоралама айланма-сальдо қайдномасини тақдим этишди:

|                                                                            | Дт         | Кт         |
|----------------------------------------------------------------------------|------------|------------|
|                                                                            | млрд ш.б.  | млрд ш.б.  |
| дивидендлар                                                                | 16         |            |
| дебиторлик қарзи                                                           | 41         |            |
| тижорат харажатлари                                                        | 29         |            |
| оралиқ ҳисобварақ                                                          | 20         |            |
| захиралар                                                                  | 21         |            |
| сотувлар таннари                                                           | 213        |            |
| пул маблағлари                                                             | 7          |            |
| солиқ бўйича харажат                                                       | 14         |            |
| маъмурий харажатлар                                                        | 32         |            |
| асосий воситалар – бошланғич қиймат ҳисобварағи                            | 102        |            |
| асосий воситалар – 20X6 йил 1 январь ҳолатига кўра жамғарилган амортизация |            | 24         |
| тушум                                                                      |            | 310        |
| тақсимланмаган фойда                                                       |            | 44         |
| кредиторлик қарзи                                                          |            | 37         |
| акциядорлик капитали                                                       |            | 50         |
| банкдан олинган қарз                                                       |            | 30         |
|                                                                            | <b>495</b> | <b>495</b> |

Бундан ташқари, Сизга юқорида келтирилган айланма-сальдо қайдномасида бир нечта вазиятлар ҳисобга олинмагани, уларни акс эттиришда компания бухгалтерларида айрим қийинчиликлар юзага келганлиги маълум қилинди. Ушбу вазиятларнинг тафсилотлари қуйидаги изоҳларда келтирилган:

1. Тушум суммасига йирик мижозга 30 млрд ш.б. миқдоридаги маҳсулот сотилиши ҳам киритилган. Сотув ҳисобот йили тугашидан 2 кун олдин, маҳсулот етказиб берилганидан сўнг бир ҳафта ичида дебиторлик қарзини тезлаштирилган тартибда сўндириш эвазига 10 % чегирма бериш шarti билан амалга оширилган. Компания мижоз ушбу чегирмадан фойдаланишини кутмоқда, бироқ ҳисобот санасида қарздорлик ҳали сўндирилмаган эди.
2. Айланма-сальдо қайдномасидаги оралиқ ҳисобварақ тўлиқлигича сунъий интеллект асосида мижозларнинг тўлов қобилиятини баҳолаш тизимини яратиш лойиҳаси харажатларидан иборат. Лойиҳа 20X6 йил 1 августда бошланган ва ҳисобот санасида ҳали якунланмаган, унга ҳар ой 4 млн ш.б. сарфланган. Янги тизимнинг амалий қўлланилиши ва ўзини оқлаши 20X6 йил 30 сентябрда якуний намоиш қилинган. Ушбу вазият бўйича Сиз лозим деб топган ҳар қандай тузатишлар фойда ва зарар тўғрисидаги ҳисоботда тижорат харажатлари сатрида акс эттирилиши керак.

3. Айланма-сальдо қайдномасида ҳисобга олинган банкдан олинган қарз 20X6 йил 1 сентябрда олинган ва у 20X7 йил 31 августда йиллик 10% ставка бўйича ҳисобланадиган фоизларни тўлаш билан бир вақтда қайтарилиши керак. Фоиз юқорида келтирилган айланма-сальдо қайдномасида ҳали ҳеч қандай тарзда акс эттирилмаган.
4. 20X6 йил сентябрь ойида компания мижозларидан бири етказиб бериш шартлари бузилганлиги тўғрисида унга қарши даъво аризаси бериб, компенсация сифатида 40 млрд ш.б. суммани талаб қилди. «Денгиз» компанияси юристлари иштирок этган бир нечта суд мажлислари давомида даъво суммасини 11 млрд ш.б.гача камайтиришга эришилди, гарчи жараён ҳали якунланмаган бўлса-да. 20X6 йил 31 декабрь ҳолатига кўра компания юристлари ушбу даъво бўйича тўловлардан умуман қутулиш имконияти ҳали мавжуд деб ҳисоблайдилар. Агар Сиз ушбу вазиятга нисбатан бирор-бир тузатиш киритишни лозим деб топсангиз, уларни фойда ва зарар тўғрисидаги ҳисоботда бошқарув харажатлари сатрида, молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда эса – кредиторлик қарзи сатрида акс эттирилиши лозим.
5. Компаниянинг асосий воситалари таркибига бошланғич қиймати 30 млрд ш.б. бўлган ер участкаси киритилган, қолган қисми эса ишлаб чиқариш ускуналарига тегишли. Ушбу ускуналар 12 млрд ш.б. баҳоланган тугатиш қийматига ва 10 йил кутилаётган фойдали хизмат муддатига эга. Мазкур ускуналар амортизацияси сотувлар таннархига киритилади. 20X6 йилда асосий воситалар харид қилинмаган ёки ҳисобдан чиқарилмаган.

### 1-топшириқ (2.5 балл):

«Денгиз» компаниясининг 20X6 йил 31 декабрь ҳолатига молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботида киритилиши лозим бўлган асосий воситаларнинг баланс қийматини ҳисоблаб чиқаринг. Бунинг учун бўш катакларга суммаларни ёзиб, қўйида келтирилган шаблонни тўлдиринг. Зарур бўлган ҳолларда, юқоридаги 1–5-изоҳларда келтирилган маълумотлар натижалари бўйича тузатишларни ҳисобга олишингиз керак.

|                                         | ускуналар,<br>млрд ш.б. | ер,<br>млрд ш.б. | жами |
|-----------------------------------------|-------------------------|------------------|------|
| бошланғич қиймат                        | ёзинг                   | ёзинг            |      |
| минус жамғарилган амортизация           | ёзинг                   | ёзинг            |      |
| минус 20X6 йил учун амортизация         | ёзинг                   | ёзинг            |      |
| 31/12/20X6 ҳолатига кўра баланс қиймати |                         |                  |      |

### 2-топшириқ (12.5 балл):

20X6 йил учун «Денгиз» компаниясининг фойда ва зарар тўғрисидаги ҳисоботини ҳамда 20X6 йил 31 декабрь ҳолатига кўра молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботини тайёрланг. Бунинг учун бўш катакларга суммаларни ёзинг ёки очилувчи рўйхатдан тўғри вариантни танланг.

Зарур бўлган ҳолларда, юқоридаги 1–5-изоҳларда келтирилган маълумотлар натижалари бўйича тузатишларни ҳисобга олишингиз керак.

**«Денгиз» компаниясининг 20X6 йил учун фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисоботи**

|                              | млрд ш.б. |
|------------------------------|-----------|
| тушум                        | ёзинг     |
| сотувлар таннари             | ёзинг     |
| ялпи фойда                   |           |
| тижорат харажатлари          | ёзинг     |
| бошқарув харажатлари         | ёзинг     |
| операцион фойда              |           |
| фоиз харажатлари             | ёзинг     |
| солиқ солингунга қадар фойда |           |
| фойда солиғи бўйича харажат  | ёзинг     |
| йил учун фойда               |           |

**«Денгиз» компаниясининг 20X6 йил 31 декабрь ҳолатига кўра молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботи**

|                                       | млрд ш.б.                                       |
|---------------------------------------|-------------------------------------------------|
| узоқ муддатли активлар                |                                                 |
| асосий воситалар                      |                                                 |
| [оралиқ ҳисобварақ/номоддий активлар] | ёзинг                                           |
|                                       |                                                 |
| айланма активлар                      |                                                 |
| захиралар                             | ёзинг                                           |
| дебиторлик қарзи                      | ёзинг                                           |
| пул                                   | ёзинг                                           |
| жами активлар                         | XXX                                             |
|                                       |                                                 |
| хусусий капитал                       |                                                 |
| акциядорлик капитали                  | ёзинг                                           |
| тақсимланмаган фойда                  | [44+йил учун фойда/ 44+йил учун фойда-16/44-16] |
|                                       |                                                 |
| қисқа муддатли мажбуриятлар           |                                                 |
| кредиторлик қарзи                     | ёзинг                                           |
| банкдан олинган қарз                  | ёзинг                                           |
| жами хусусий капитал ва мажбуриятлар  | XXX                                             |

## 1-сценарий ечими

### 1-топшириқ. Ўтказмалар

#### 1. Декабрь ойи учун амортизация ҳисобланиши (2 балл)

20X6 йил декабрь ойи учун бино амортизациясини ҳисоб-китоб қилиш:

- Амортизацияланадиган сумма =  $500\,000 - 20\,000 = 480\,000$  ш.б.
- Ойларда ифодаланган муддат =  $40 \times 12 = 480$  ой
- Ойлик амортизация =  $480\,000 / 480 = 1\,000$  ш.б.

Синов балансида амортизация 46 000 ш.б. миқдорида ҳисобланган, бу эса декабрь ойи учун амортизация ҳисобланмаганлигини билдиради.  $1000 \text{ ш.б.} \times 80\% = 800 \text{ ш.б.}$  – тижорат харажатлари, 200 ш.б. – маъмурий харажатлар.

Ўтказма:

**Дт «Маъмурий харажатлар» – 200 ш.б.**

**Дт «Тижорат харажатлари» – 800 ш.б.**

**Кт «Жамғарилган амортизация» – 1000 ш.б.**

#### 2. Товарларнинг қадрсизланиши (1.5 балл)

Қадрсизланиш суммаси ҳисоб-китоби:  $525 \times (40 - 35) + 75 \times (42 - 35) = 3150$  ш.б.

Ўтказма:

**Дт «Реализация қилиш таннари» 3150 ш.б.**

**Кт «Товарлар» 3150 ш.б.**

#### 3. Дебиторлик қарзини резерв ҳисобидан ҳисобдан чиқариш (1 балл)

**Дт «Шубҳали қарзлар бўйича резерв» 500 ш.б.**

**Кт «Савдо дебиторлик қарзи» 500 ш.б.**

#### 4. Резервни тиклаш (1.5 балл)

Хато ўтказма:

**Дт «Пул маблағлари» 1800 ш.б.**

**Кт «Реализация қилишдан олинган даромадлар» 1800 ш.б.**

Қуйидагича амалга оширилиши керак эди:

Дт «Пул маблағлари» 1800 ш.б.

Кт «Шубҳали қарзлар бўйича резерв» 1800 ш.б.

Тузатувчи ўтказма:

**Дт «Реализация қилишдан олинган даромадлар» 1800 ш.б.**

**Кт «Шубҳали қарзлар бўйича резерв» 1800 ш.б.**

Худди шундай ўзгаришларга олиб келадиган бошқа ўтказмаларга ҳам йўл қўйилади, масалан, хато ўтказмани сторно қилиш ва тўғриси бажариш орқали.

### **5. Декабрь ойи учун фоизлар ҳисоблаш (1,5 балл)**

20X6 йил декабрь ойи учун фоизларни ҳисоб-китоб қилиш:  $50\,000 \times 12\% / 12 = 500$  ш.б. (кунлик асосда ҳисоб-китоб қилишга йўл қўйилади)

Ўтказма:

**Дт «Фоизли харажатлар» 500 ш.б.**

**Кт «Тўланадиган фоизлар» 500 ш.б.**

### **6. Суғурта харажатларига тузатиш киритиш (2 балл)**

Муддати ўтган суғурта ҳисоб-китоби:  $12\,000 / 12 \times 4 = 4\,000$  ш.б.

Ўтказма:

**Дт «Келгуси давр харажатлари» 8 000 ш.б.**

**Дт «Тижорат харажатлари» 4 000 ш.б.**

**Кт «Бошқа дебиторлик қарзи» 12 000 ш.б.**

### **7. Иш ҳақи ва ЖШДС ҳисоблаш (1,5 балл)**

Ҳисобланган иш ҳақи = 30 000 ш.б. ЖШДС =  $30\,000 \times 12\% = 3\,600$  ш.б. Тўланадиган иш ҳақи =  $30\,000 - 3\,600 = 26\,400$  ш.б.

Функциялар бўйича тақсимлаш: сотув бўлими (40 %) =  $30\,000 \times 40\% = 12\,000$  ш.б. тижорат харажатларига; маъмурият (60 %) =  $30\,000 \times 60\% = 18\,000$  ш.б. маъмурий харажатларга

**Ўтказма:**

Дт «Тижорат харажатлари» 12 000 ш.б.

Дт «Маъмурий харажатлар» 18 000 ш.б.

Кт «Тўланадиган ЖШДС» 3 600 ш.б.

Кт «Тўланадиган иш ҳақи» 26 400 ш.б.

**2-топшириқ.** 20X6 йил учун молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот (2 балл). Текширувчи учун изоҳ – агар жадвалдаги кўрсаткичлар нотўғри бўлса-ю, бироқ улар ўтказмалардаги хатолар оқибати бўлса, ушбу топшириқ учун балл пасайтирилмаслиги керак.

| Кўрсаткич номи                      | Сумма          |
|-------------------------------------|----------------|
| Тушум                               | 678 200        |
| Сотувлар таннари                    | (413 150)      |
| <b>Ялпи фойда</b>                   | <b>265 050</b> |
| Тижорат харажатлари                 | (61 200)       |
| Маъмурий харажатлар                 | (56 800)       |
| <b>Операцион фойда</b>              | <b>147 050</b> |
| Фоизли харажатлар                   | (500)          |
| <b>Солиқ солингунга қадар фойда</b> | <b>146 550</b> |
| Фойда солиғи бўйича харажатлар      | (7 500)        |
| <b>Соф фойда</b>                    | <b>139 050</b> |

**3-топшириқ.** Молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот (2 балл). Текширувчи учун изоҳ – агар жадвалдаги кўрсаткичлар нотўғри бўлса-ю, бироқ ўтказмалардаги хатолар оқибати бўлса, ушбу топшириқ учун балл пасайтирилмаслиги керак.

| АКТИВЛАР               | Сумма   |
|------------------------|---------|
| Узоқ муддатли активлар |         |
| Ер                     | 50 000  |
| Бино                   | 500 000 |

(Давоми)

| АКТИВЛАР                                                            | Сумма          |
|---------------------------------------------------------------------|----------------|
| Жамғарилган амортизация                                             | (47 000)       |
| Жами узоқ муддатли активлар                                         | 503 000        |
| Айланма активлар                                                    |                |
| Товарлар                                                            | 59 850         |
| Савдо дебиторлик қарзи (2 000 ш.б. суммада резерв чегирилган ҳолда) | 32 500         |
| Келгуси давр харажатлари (олдиндан тўланган суғурта)                | 8 000          |
| Пул маблағлари                                                      | 62 000         |
| Жами айланма активлар                                               | 162 000        |
| <b>ЖАМИ АКТИВЛАР</b>                                                | <b>665 350</b> |

| КАПИТАЛ ВА МАЖБУРИЯТЛАР             | Сумма          |
|-------------------------------------|----------------|
| Капитал                             |                |
| Устав капитали                      | 200 000        |
| Тақсимланмаган фойда                | 334 850        |
| Жами капитал                        | 534 850        |
| Қисқа муддатли мажбуриятлар         |                |
| Савдо кредиторлик қарзи             | 50 000         |
| Қисқа муддатли кредит               | 50 000         |
| Тўланадиган фоизлар                 | 500            |
| Ҳисобланган иш ҳақи                 | 26 400         |
| Ўтказиладиган ЖШДС                  | 3 600          |
| Жами мажбуриятлар                   | 130 500        |
| <b>ЖАМИ КАПИТАЛ ВА МАЖБУРИЯТЛАР</b> | <b>665 350</b> |

## 2-сценарийга жавоб

### 1-топшириқ:

|                                    | ускуналар | ер        | жами |
|------------------------------------|-----------|-----------|------|
|                                    | млрд ш.б. | млрд ш.б. |      |
| бошланғич қиймат                   | 72        | 30        |      |
| минус жамғарилган амортизация      | 24        | 0         |      |
| минус 20X6 йил учун амортизация    | 6         | 0         |      |
| 31/12/20X6 ҳолатига баланс қиймати |           |           |      |

Ўқув режасининг 3.4.С бандига қаранг.

### 2-топшириқ:

«Денгиз» компаниясининг 20X6 йил учун фойда ва зарар тўғрисидаги ҳисоботи

|                              | млрд ш.б. |
|------------------------------|-----------|
| тушум                        | 307       |
| сотувлар таннари             | 219       |
| ялпи фойда                   |           |
| тижорат харажатлари          | 37        |
| бошқарув харажатлари         | 43        |
| операцион фойда              |           |
| фоизли харажатлар            | 1         |
| солиқ солингунга қадар фойда |           |
| фойда солиғи бўйича харажат  | 14        |
| йил учун фойда               |           |

«Денгиз» компаниясининг 20X6 йил 31 декабрь ҳолатига молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботи

|                                      | млрд ш.б.                  |
|--------------------------------------|----------------------------|
| узоқ муддатли активлар               |                            |
| асосий воситалар                     |                            |
| [номоддий активлар]                  | 12                         |
| айланма активлар                     |                            |
| захиралар                            | 21                         |
| дебиторлик қарзи                     | 38                         |
| пул                                  | 7                          |
| жами активлар                        | XXX                        |
| хусусий капитал                      |                            |
| акциядорлик капитали                 | 50                         |
| тақсимланмаган фойда                 | [44 + йил учун фойда – 16] |
| қисқа муддатли мажбуриятлар          |                            |
| кредиторлик қарзи                    | 48                         |
| банкдан олинган қарз                 | 31                         |
| жами хусусий капитал ва мажбуриятлар | XXX                        |

Ўқув режасининг 3.4.В ва 3.4.С бандларига қаранг.

## «Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари» имтиҳонининг тузилмасига доир изоҳлар

Имтиҳон тузилмасининг қуйида келтирилган параметрлари эълон қилиш учун мўлжалланмаган, уларнинг мақсади – кейинги имтиҳонларни яратишда имтиҳон олувчилар учун мўлжал бўлиб хизмат қилишдир.

Балларнинг 10 фоиздан 20 фоизгачаси назарияни тўғридан-тўғри синовдан ўтказишга оид саволларга (таърифлар, концепциялар ва ҳ.к.), 90 фоиздан 80 фоизгачаси эса ҳисоб-китобларга ва назарий билимларни муайян вазиятга қўллашга оид саволларга тўғри келади.

Саволларнинг мураккаблик даражаси бўйича балларнинг тақсимланиши:

- 60 % балл ўртача мураккаблик даражасидаги саволларга тегишли
- 20 % балл ўртачадан юқори мураккаблик даражасидаги саволларга тегишли
- 20 % балл ўртачадан паст мураккаблик даражасидаги саволларга тегишли

Имтиҳон бўлимлари бўйича саволларнинг тақсимланиши:

| Бўлим номи                                                                 | Вазни        |
|----------------------------------------------------------------------------|--------------|
| 1. Молиявий ҳисобот ташқи фойдаланувчилар билан мулоқот механизми сифатида | 8 %          |
| 2. Ташкилотнинг асосий операцияларини ҳисобга олиш *                       | 33 %         |
| 3. Молиявий ҳисоботни тайёрлаш жараёни**                                   | 30 %         |
| 4. Тўлиқ бўлмаган ёзувлардан молиявий ҳисоботни тиклаш                     | 6 %          |
| 5. Компаниялар гуруҳи учун ҳисобот тайёрлаш тамойиллари                    | 15 %         |
| 6. Молиявий ҳисоботнинг базавий таҳлили                                    | 8 %          |
|                                                                            | <b>100 %</b> |

\* Ҳар бир кичик бўлимга ўртача 2 тадан савол

\*\* В қисмининг иккита саволидан бири мажбурий равишда ҳисоботни тайёрлашни ўз ичига олади. Изоҳлар имтиҳоннинг А қисмидаги 2-бўлим саволларини мазмун ва мавзулари бўйича такрорламаслиги учун уларнинг мувозанатланганлигини кузатиб бориш лозим.